
SARDORLAR RINGI 2020”



“SARDORLAR RINGI 2020”

Tuman madaniyat uyining majlislar zalida O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi So'x tuman Kengashi tomonidan “Sardorlar - bilimlarga yetaklar” shiori ostida tuman Kengashiga sardorlar saylovi o'tkazildi. - Hamkor tashkilotlar ishtirokida bo'lib o'tgan tadbirning yana bir nomi “Sardorlar ringi 2020” deb ataladi, deydi tuman Kengashi raisi Javohir Sirojiddinov.



Sardorlar o'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha "Agar men tuman sardori bo'lsam" mavzusi ostida tayyorlab kelgan loyihalari bilan ishtirok etishdi. Saylov oshkoralik, shaffoflik, demokratik talablar asosida o'tdi va sardorlarni saylash jarayoni ochiq ovoz berish yo'li bilan amalga oshirildi. Saylov yakuniga ko'ra "Ittifoq" va "Kamalak" yo'nalishlarida faoliyat olib boradigan 14-nafar sardorlar saylandi.

2 / 4

Tadbir oxirida tuman sardorlar Kengashi a'zolari Yoshlar Ittifoqi tuman Kengashining "Ishonch yorliqlari" va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

